



*hokimligi
maksiabgacha va maksiab ta'lifi
boshqarmasi*
*maksiabgacha va
maksiab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
-umumi o'rta ta'lim maksiabi
tarbiya fani o'qutivchisi
ning
2023-2024-o'quv yiliga 11-sinflar uchun*

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘

2023-2024-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan taqvimiyl mavzu rejasi

Nº	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Vatan taraqqiyotiga men ham mas'ulman	1		
2.	Erkin va farovon hayot mazmuni	1		
3.	Dadil qadamlar bilan katta hayot sari	1		
4.	Dadil qadamlar bilan katta hayot sari	1		
5.	Oila mas'uliyati, sha'ni va qadri	1		
6.	Ibrat maskani	1		
7.	Bag'rikenglik	1		
8.	Ksenofobiya	1		
9.	Ksenofobiya	1		
II chorak				
10.	Missionerlik - yoshlar kelajagiga tahdid	1		
11.	Missionerlik - yoshlar kelajagiga tahdid	1		
12.	Kibermakonda axborot iste'moli madaniyati	1		
13.	Kibermakonda axborot iste'moli madaniyati	1		
14.	Dunyo dinlarda tinchlik g'oyasi	1		
15.	Dunyo dinlarda tinchlik g'oyasi	1		
16.	Loyiha ishi /Nazorat ishi	1		
III chorak				
17.	Tuyg'ularning xilmaxilligi	1		
18.	Tuyg'ularning xilmaxilligi	1		
19.	Nafosat va ma'naviyat	1		
20.	Surat va siyrat	1		
21.	Surat va siyrat	1		
22.	Etiket	1		
23.	Etiket	1		
24.	Loyiha ishi	1		
25.	Takrorlash	1		
26.	Renessans poydevori	1		
27.	Renessans poydevori			
IV chorak				
28.	Halollik vaksinasi	1		
29.	Halollik vaksinasi	1		
30.	Havas qil va oldinga intil	1		
31.	Havas qil va oldinga intil	1		
32.	Mehnatdan qadr topganlar	1		
33.	Loyiha ishi: Men tanlagan yo'l	1		
34.	Umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Vatan taraqqiyotiga men ham mas'ulman

Darsning maqsadi:

Ta'limiylar: o'quvchilarga vatan taraqqiyotiga men ham mas'ulman mavzusi haqida mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yishda kundalik turmushning oddiy sinovlari-yu "past-u baland"idan tortib umrning ajoyib va g'aroyib sinalmagan so'qmoqlari, yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va yolg'onchilik, halol va harom kabi fazilat-u nuqsonlar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: samimiyat va pokizalikka asoslangan shaxsiy ibrat, murabbiy-ustozlaringizning mehribonlik va talabchanlikka yo'naltirilgan ta'lim-o'gitlari, go'zal tarbiya, bilim va ko'nikmalarini shakillantirish.

Rivojlantiruvchi: "Erkin va farovon hayot mazmuni", "Dadil qadamlar bilan katta hayot sari", "Ibrat maskani", "Missionerlik – yoshlar kelajagiga tahdid", "Renessans poydevori", "Halollik vaksinasi" kabi qiziqarli mavzular, fikr-mushohadaga chorlaydigan ijodiy topshiriqlar haqida tushuncha berish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishslash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

Dars jahozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

Nº	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Insondagi daxldorlik – biror-bir faoliyatga, jarayonga aloqadorlik va sheriklikni anglatadi. Har bir fuqaro Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashasa, uning jamiyat oldidagi burch va mas'uliyati ham kuchayib boradi. Daxldorlik hissi insonlarni birlashtiradi.

"Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar".





**SAYYORAMIZNING ERTANGI
KUNI, FAROVONLIGI
FARZANDLARIMIZ QANDAY
INSON BO'LIB KAMOLGA
YETISHI BILAN BOG'LIQ.**

SH.MIRZIYOYEV

“Biz tom ma’noda yangi O’zbekistonning farzandimiz, – deydi Qorako’l tumanidagi matematikaga ixtisoslashgan mакtabning 9-sinf o’quvchisi Anvarbek Rahmatov. – Respublika va xalqaro olimpiadalarda sovrinli o’rnlarni qo’lga kiritdim. Janubiy Afrikada o’tkazilgan fan olimpiadasida oltin va bronza, Ozarbayjonda o’tkazilgan fan olimpiadasida esa kumush, Jautikov nomidagi Xalqaro olimpiadada bronza medaliga ega bo’ldim. Bu yutuqlarim asosida mamlakatimizda biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishim yotadi, deb o’ylayman. Niyatlarim juda katta. Maqsadim bizga berilayotgan barcha imkoniyatlarga oltin medallar bilan javob berish orqali Vatanim dovrug’ini dunyoga tanitishdir”. Bilingki, to’qilgan matoda har bir ipning o’z o’rnini bor. Matoning qaysi yerida ip chirigan bo’lsa, mato shu yerdan boshlab yirtiladi. Hayot zanjirida ham xuddi shunday: har bir odamning o’z o’rnini va vazifasi bor. Muhimi – zanjirning uzilishiga sen sababchi bo’lib qolmasligingdir. Mehrbonlik uyiga bola asrab olish uchun bir oila keldi. Ularning nazari ota-onasi avtohalokatga uchrangan 7 yoshli bolaga tushdi. Bolakay: “Men sizlar bilan keta olmayman”, – dedi. Undan buning sababini so’rashdi. “Bu yerda mening kichkina singlim bor, men – akaman, uni tashlab keta olmayman. Ota-onamga va’da bergenman”, – deb javob berdi bola. Bunday oqibatni ko’rgan insonlarning o’zlariga yosh qalqidi va aka-singilni birga farzandlikka olishga qaror qilishdi.

Mas’uliyatni zimmasiga olish insonga fayz-u kamol baxsh etib, uni ulug’ darajaga yetkazadi. Kimning xalqqa foydasi tegib, shu tufayli halovat topsa, o’sha – yaxshi odam.

Yusuf Xos Hojib



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Vatanimiz taraqqiyotida sizning qanday hissangiz bor? Siz kelajakda tanlamoqchi bo’lgan kasb Vatan taraqqiyotiga qanchalik ta’sir etadi, deb o’ylaysiz?
2. “Ma’naviy hayot”, “moddiy ne’mat”, “halol inson” tushunchalarini qiyoslab, mushtarak jihatlarini aytинг.
3. Jamiyatning faol a’zosi sifatida biz nimaga daxldor bo’lishimiz kerak? Bizning mas’uliyatimiz nimalardan iborat?

V. Darsni yakunlash: o’quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag’batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish:

1. Jamiyat ravnaqi uchun o’zingizni qanchalik mas’ul deb hisoblaysiz?
2. Mulohaza uchun berilgan matnlarning bir-biri bilan qanday aloqadorligi bor?
3. Qurbaqaning harakatiga baho bering. Bu ish quyida berilgan “Muhimi – zanjirning uzilishiga sen sababchi bo’lib qolmasligingdir” degan hikmat bilan qay darajada bog’liq? Fikringizni asoslang.
4. O’zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning “Intellektual salohiyat Vatan sevgisi bilan uyg’un bo’lgandagina yuksak natijalar beradi” degan fikrini izohlang.

O’IBDO’: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Erkin va farovon hayot mazmuni

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga erkin va farovon hayot mazmuni mavzusi haqida mustaqil hayot ostonasiga qadam qo‘yishda kundalik turmushning oddiy sinovlari-yu “past-u baland”idan tortib umrning ajoyib va g‘aroyib sinalmagan so‘qmoqlari, yaxshilik va yomonlik, to‘g‘rilik va yolg‘onchilik, halol va harom kabi fazilat-u nuqsonlar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: samimiyat va pokizalikka asoslangan shaxsiy ibrat, murabbiy-ustozlaringizning mehribonlik va talabchanlikka yo‘naltirilgan ta’lim-o‘gitlari, go‘zal tarbiya, bilim va ko‘nikmalarini shakillantirish.

Rivojlantiruvchi: “Erkin va farovon hayot mazmuni”, “Dadil qadamlar bilan katta hayot sari”, “Ibrat maskani”, “Missionerlik – yoshlar kelajagiga tahdid”, “Renessans poydevori”, “Halollik vaksinasi” kabi qiziqarli mavzular, fikr-mushohadaga chorlaydigan ijodiy topshiriqlar haqida tushuncha berish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo‘ladi, ma’suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o‘zini anglaydi, mustaqil sog‘lom fikrga ega bo‘ladi, orasta kiyinadi va sog‘lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishslash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishslash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihizi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

Nº	Bo‘limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Inson faoliyatida ikki muhim omil – moddiy va ma’naviy olam o‘zaro uyg‘unlashib, qo‘sish qanotga aylangan taqdirda, inson, davlat va jamiyat hayotida o‘sish-o‘zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo‘ladi. Shu bilan birga bilim va tajribasi, aql-idroki, kasb malakasi yetarli bo‘lgan, qonunlarni, o‘z haqhuquqlari va majburiyatlarini yaxshi bilgan odamgina barcha sohada ijobjiy natijalarga erisha oladi.



Bu ma'naviyatning ishlab chiqarish, iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Aks holda, jamiyatda ma'naviy-axloqiy munosabatlар tanazzulga uchraydi, insonning sha'ni, qadr-qimmati poymol etiladi. Mehnatga munosabat axloq kategoriyasiga kiradi. Mehnatga munosabatdan kishining baxtli bo'lishi kelib chiqadi. Demak, bu tushunchalarni sidirg'a, birin-ketin qo'yganda: baxt – axloq degani, axloq – mehnat degani bo'ladi. Axloq mukammalligi baxtga erishuvning stimulidir. Boylik bilan kambag'allik yonma-yon yuradi... Ular vaqtı-vaqtı bilan o'rin almashadi, xolos. Shu bois boyligingga quvonma, u o'tkinchidir. Yo'qchilikda ko'pam qayg'urma, bu ham o'tmay qolmas... Agar kishi oqil bo'lsa, har bir yaxshi-yomon ishlardan o'ziga kerakli xulosalarni chiqarib oladi.



Ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Pul ezgulikni tug'dirmaydi, aksincha, ezgulik tufayli odamlar shaxsiy hayotda ham, jamiyatda ham pul va boshqa boyliklarga ega bo'ladilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Siz farovon turmushni qanday tasavvur qilasiz? Quyidagi rasmlar orqali fikringizni asoslang.
2. "Tinch va totuv hayot", "moddiy va ma'naviy hayot", "halol va fidoyi inson" tushunchalarini solishtirib, o'xshash jihatlarini aytинг.
3. Mamlakatimizda farovon turmush, yurt tinchligi, jamiyat rivoji uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

1. Ezgulikka nimalarni misol qila olasiz?
2. Qanday qilib odamlar ezgulik tufayli shaxsiy hayotda ham, jamiyatda ham pul va boshqa boyliklarga ega bo'ladi?
3. Siz hayotingizda pul va boshqa boyliklarga ega bo'lish uchun nimalarnirejalashtirdingiz? Maqsadingizga erishish uchun yo'l xaritasini ishlab chiqing. Bunda, albatta, ezgu maqsad, ezgu ishlarga urg'u bering.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

Tarbiya fanidan 11-sinflarga konspektni to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.

Narxi: 25 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabihev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**